NKMK — yuksak sifat, samaradorlik va ijtimoiy himoya kafolati!

# KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№11 (773), 2024-yil 14-iyun

facebook.com/nkmkofficial t.me/ngmkofficial instagram.com/nkmk.official www.ngmk.uz

■ Markaziy kon boshqarmasining 60 yilligi

## QUTLUG‘ SANA – YANGI MARRALARGA POYDEVOR

**Markaziy kon boshqarmasi “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining yetakchi korxonasidir. 31-may kuni Zarafshon shahrining bayramona bezatilgan “Oltin vodiy” madaniyat saroyida kon boshqarmasining 60 yilligi, shuningdek 2-gidrometallurgi zavodi va Tashqi suv ta’minoti birlashgan energoxizmatining 55 yilligi – qo‘shaloq ayyomlar tantanali nishonlandi. Madaniyat saroyiga kiraverish maydonida karnay-surnay, doyra va baraban sadolari yangrab turar, go‘yoki barchani bayram shodiyonalariga chorlayotgandek edi.**



Kunning ikkinchi yarmida kon boshqarmasida uzoq yillar samarali mehnat qilgan faxriylar, korxona rivojlanishiga munosib hissa qo‘shayotgan turli kasb egalari, yoshlar ko‘tarinki kayfiyat bilan saroyga kela boshladilar. Ularning yuz-ko‘zlarida quvonch, shodlik, taqdiridan shukronalik, asriy Qizilqum sahrosi bag‘rida ulkan sanoat majmuasi va ertaklardagidek ko‘rkam shahar bunyod etilishida daxldorligidan mamnunlik hissi zohir edi.

Bayram shodiyonalari kon boshqarmasi tashkil topganligining 60 yilligiga bag‘ishlangan videorolik namoyishi bilan boshlandi. Tantanali yig‘ilishda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov korxona ishchi-xizmatchilari, muhandis-texnik xodimlari, barcha mehnatkashlarini qutlug‘ sana munosabati bilan qizg‘in tabriklab, kon boshqarmasi jamoasining bunyodkorlik mehnatini e’tirof etdi.

Tadbirda ta’kidlanganidek, bugun 21 ming nafardan ortiq ishchi-xodim mehnat qilayotgan Markaziy kon boshqarmasi kombinatning eng yirik bo‘linmasi, 2-gidrometallurgiya zavodi davlatimizning “valyuta sexi”, Tashqi suv ta’minoti birlashgan energoxizmat bo‘linmasi esa sahroga “obi-hayot” olib kelayotgan jamoa va ulardan har birining respublikamiz iqtisodiyoti, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda beqiyos o‘rni bor.

Ma’lumki, kombinatning tashkil etilishi uran konlarining ochilishi va ularni o‘zlashtirish bilan bog‘liq bo‘lsada, uning keyingi faoliyatida oltin ishlab chiqarish asosiy o‘ringa chiqdi. Geologlar tomonidan “Muruntov” oltin konining ochilishi Qizilqum hududida katta o‘zgarishlarni boshlab berdi. Konni o‘zlashtirishning boshlanishi natijasida bu yerda yirik sanoat majmuasi va betakror Zarafshon shahri bunyod etildi.

Minglab fidoyi muhandis va mutaxassislarning mashaqqatli mehnati evaziga qisqa muddatda 2-gidrometallurgiya zavodi qurib bitkazilib, ishga tushirildi, 208 kilometr masofadan, Amudaryodan aholi va korxonalar uchun quvurlar orqali suv olib kelindi. “Muruntov” konini o‘zlashtirish, zavodni ishga tushirish hamda Zarafshon shahrining qurilishida atoqli davlat arbobi, xalqimizning fidoyi farzandi Sharof Rashidovning xizmatlari juda katta bo‘ldi.

O‘zbekistonda hayratlanarli darajadagi o‘zgarishlar yuz bermoqda. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida Yangi O‘zbekistonda boshlangan keng ko‘lamli islohotlar kon-metallurgiya sohasini ham yangi yuksalish bosqichiga olib chiqmoqda. Keyingi 6-7 yilda kombinatda 4 ta yangi gidrometallurgiya zavodi ishga tushirildi. Shundan uchtasi, ya’ni, 5 va 7-gidrometallurgiya zavodlari va 2-gidrometallurgiya zavodining 2-navbati bevosita mazkur hududda foydalanishga topshirildi.




Zavodlarni xomashyo bilan ta’minlash maqsadida “Muruntov” konining beshinchi navbati, “Balpantov”, “Tomdibuloq”, “Turbay” konlari o‘zlashtirildi. Kombinatning kuchi bilan 2017-2023-yillarda 100 kilometrdan ortiq temir yo‘l qurildi. Bu kabi yutuqlarni yana ko‘plab keltirish mumkin. Investitsion loyihalarni jadallashtirish hisobiga 2017-2026-yillarga mo‘ljallangan dastur muddatidan ikki yil oldin – 2024-yilda to‘la yakunlanadi. Buning hisobiga oltin ishlab chiqarish 96 tonnaga, o‘sish sur’ati 32 foizga yetkaziladi.

Kombinatda qazib olinayotgan va qayta ishlanayotgan mahsulotning sezilarli qismi Markaziy kon boshqarmasi hissasiga to‘g‘ri keladi va dunyo tan olgan “999.9” tamg‘ali oltin quymalar ham shu yerda tayyorlanadi. Quvondiq Sanaqulovich bayram ishtirokchilari e’tiborini korxonada iqtisodiy yuksalishni ifodalaydigan tahlil va raqamlarga qaratdi. 2017-yilda kon boshqarmasi jamoasi tomonidan 75 million kubometrdan ortiq tog‘ jinsi qazib olingan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 166 million kubometrni tashkil etib, o‘sish darajasi ikki baravarga oshdi. Yoki 2017-yilda 62 million tonna ma’dan qayta ishlangan bo‘lsa, o‘tgan yili bu ko‘rsatkich qariyb 100 million tonnaga yetdi.

Ma’lumki, kombinatda ishchi-xodimlarning ijtimoiy himoyasi, yashash sharoitlarini yaxshilash doimo diqqat-markazida bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Keyingi yillarda Zarafshon shahrida katta ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Shu o‘rinda ko‘plab turar-joylar, yotoqxonalar, Ishchilar shaharchasi, ijtimoiy obyektlar barpo etilganini alohida qayd etish zarur. Kombinat homiyligida so‘nggi yillarda “Favvoralar xiyoboni”, “Umid” maktabgacha ta’lim tashkiloti, ixtisoslashtirilgan maktab-internati barpo etildi. Biz, bundan keyin ham Zarafshon shahri aholisi uchun ijtimoiy ahamiyatga molik binolarni qurib berishni davom ettiramiz, – dedi notiq o‘z so‘zida.

Tantanali yig‘ilishda Markaziy kon boshqarmasining 60 yilligi, 2-gidrometallurgiya zavoda va Tashqi suv ta’minoti birlashgan energoxizmatining 55 yilligi munosabati bilan kon boshqarmasining bir guruh ishlab chiqarish ilg‘orlari turli darajadagi “Konchilik shuhrati” ko‘krak nishonlari bilan taqdirlandilar. “Auminzo-Amantoy” koni bosh marksheyderi Ilhom Namozov, 2-gidrometallurgiya zavodi bosh energetigi Rustam Jabborov, 5-gidrometallurgiya zavodi direktori Farhod Cho‘liyev, Tarmoqlar va podstansiyalar sexi bosh muhandisi Ramatula Avezov, Markaziy moddiy-texnika bazasi ombor mudiri Roza Buribayeva, Temir yo‘l transporti boshqarmasi dispetcheri Elmurod Zokirov, Zarafshon ta’mirlash-mexanika zavodi ta’mirlovchi-chilangari Faxriddin Mullayev, Nazorat-o‘lchov asboblari va avtomatika markaziy laboratoriyasi guruh rahbari O‘tkir Nazarov, 7-sonli avtobaza haydovchisi Qamariddin Shamsiyev, Mehnat sharoitlari nazorati va atrof-muhitni muhofaza qilish markaziy laboratoriyasi chang-gaz laboratoriyasi boshlig‘i Janar Joldibayeva, “Muruntov” koni emulsiyali portlovchi moddalarni ishlab chiqarish va portlatish ishlarini olib borish sexi kon ishchisi Aleksandra Pokotilova, Avtomobil transporti boshqarmasi “Auminzo-Amantoy” transport sexi navbatchi chilangari Temur Raxmonov, 2-gidrometallurgiya zavodi bosh muhandisi Sardor Polvonovlar shular jumlasidandir.

Tadbirda Markaziy kon boshqarmasi direktori E.Xalikulov ham bayram ishtirokchilarini muborakbod etdi. Tabrik va taqdirlash tantanalaridan so‘ng “Farhod”, “Oltin vodiy” madaniyat saroylari, “Uchquduq” madaniyat uyi, Vatanimiz poytaxti Toshkent shahridan tashrif buyurgan “Sharqoniy” ansambli san’atkorlarining dilrabo kuy-qo‘shiqlari, jozibali raqslaridan tashkil topgan konsert dasturi tadbir ishtirokchilariga bayramona ruh bag‘ishladi.

**Nizomiddin SADRIDDINOV.**

■ Yangiliklar. Xabarlar.

## YANGI KON TEXNIKALARI YIG‘ILMOQDA

**Navoiy kon-metallurgiya kombinati boshqarmasining Bosh mexanik bo‘limi korxonada ishlab chiqarish texnikasi va uskunalarining uzluksiz ishlashini ta’minlash kabi muhim yo‘nalishni muvofiqlashtiruvchi bo‘linma hisoblanadi.**

Ayni paytda gidrometallurgiya zavodlaridagi 130 taga yaqin tegirmon, elektr toki va gidravlikada ishlaydigan 130 ta ekskavator, 102 ta burg‘ilash uskunasi, 116 ta shaxta avtoag‘dargichi, 5 ta maydalagich, tik-qiya konveyyeri, 38 kilometrlik davriy uzluksiz konveyyer liniyasi va boshqa uskunalarning ish holatida bo‘lishi bo‘lim mutaxassislari doimiy nazoratida.




Keyingi yillarda kombinat texnika parki zamonaviy kon texnikalari bilan yangilanmoqda. Bu borada AQShning “Saterpillar”, Yaponiyaning “Komatsu”, “Hitachi Construction Machinery Co. Ltd”, Shvetsiyaning “Boomer”, Rossiyaning “Ijora MZ”, Germaniyaning “Libherr”, shuningdek, “Epiroc”, “Sandvik”, “IKO Machinery” va boshqa yetakchi kompaniyalar bilan hamkorlik o‘zining yaxshi natijalarini bermoqda.

Joriy yilda kovshining hajmi 22 kubometr (50 tonna) bo‘lgan 8 ta gidravlik ekskavator olib kelinishi mo‘ljallangan. Hozirga qadar “Komatsu” va “Libherr” kompaniyalarining 4 ta gidravlik ekskavatori keltirildi. Bugungi kunda ekskavatorlarning 2 tasi Markaziy kon boshqarmasi kon jihozlarini ta’mirlash sexida yig‘ilmoqda va ulardan kelgusida “Muruntov” konida foydalanish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, Germaniyaning “Libherr” kompaniyasida ishlab chiqarilgan, kovshining hajmi 6 kubometr bo‘lgan 2 ta “R9100” rusumli gidravlik ekskavatorlarni ham yig‘ish jarayoni olib borilmoqda. Bu texnikalar Shimoliy kon boshqarmasining “Sharqiy” konida ishlatilishi mo‘ljallangan.

Bosh mexanik bo‘limi jamoasi mahalliylashtirish dasturini amalga oshirishda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Keyingi besh yilda ehtiyot qismlar, nasoslar, nostandart uskunalar, metallokonstruksiyalar, sharli tegirmonlar, gidrosiiklon qurilmalar, texnologik quyiltirgichlar, metall kesish dastgohlari, reduktorlar, burg‘ilash uskunalari, ekskavatorlarga kovshlar kabi 500 turdan ortiq mahsulotlar mahalliylashtirildi.

**Navoiy kon-metallurgiya kombinati o‘z faoliyati yo‘nalishida xorijning yetakchi kompaniyalari, ilmiy muassasalari bilan hamkorlik ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Bu borada Rossiyaning kon geomexanikasi va marksheyderlik ishi ilmiy-tadqiqot instituti – “VNIMI” tarmoqlararo ilmiy markazi bilan 2018-yildan yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik o‘zining yaxshi natijalarini bermoqda.**

## ILMIY HAMKORLIK

Yaqinda ushbu ilmiy muassasaning bosh direktori M.Shadrin boshchiligidagi delegatsiya vakillari kombinatga tashrif buyurdi. Bundan asosiy maqsad – kombinat va ilmiy muassasa o‘rtasida 2024-2025-yillarda amalga oshiriladigan istiqbolli ilmiy-tadqiqot loyihalarini ko‘rib chiqish, kadrlar malakasini oshirish va boshqa mavzulardagi masalalarni muhokama etishdan iborat.

– Kombinat mutaxassislari bilan bu galgi uchrashuv ham samarali kechdi. Qator loyihalarni muhokama etdik. Shu bilan birga, joriy yilning 27-31-may kunlari kombinatning 36 nafar mutaxassislari hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining 9 nafar professor-o‘qituvchilari uchun malaka oshirishga qaratilgan mashg‘ulotlar o‘tkazdik. Shuningdek, har bir tinglovchining o‘quv mashg‘ulotlari yakunida test natijalari asosida bilim darajalari tekshirilib, ularga sertifikatlar topshirdik. Bu kabi amaliy ishlarimiz tufayli kombinat bilan hamkorlik qilayotganimizdan mamnunmiz, - deydi “VNIMI” AJ Ural filiali direktori V.Venger.

Ta’kidlash kerakki, mashg‘ulotlarning ilk bosqichi shu yilning 22-26-yanvar kunlari Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida “Er osti kon ishlari geomexanikasi” mavzusida o‘tkazilgan bo‘lsa, avgust oyida “Ochiq kon ishlari geomexanikasi” mavzusida o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

## BAYRAM SHODIYONALARI

**Zarafshon shahrida Markaziy kon boshqarmasi tashkil topganligining 60 yilligi shodiyonalari 1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni va konsert dasturiga ulanib ketdi. Shonli sana munosabati bilan dam olish kunlari shahar aholisi uchun madaniy tadbirlar o‘tkazildi.**

Albatta, sahroda matonatli mehnat qilayotgan, yuksak marralarni zabt etayotganlarga bayramlar, tantanalar yarashadi. Kombinat ma’muriyati va kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan kechki paytda Zarafshon shahridagi “Qizilqum” o‘yingohida kon boshqarmasi ishchi-xodimlari, aholi, mehmonlar uchun iste’dodli san’atkor, estradamizning yorqin yulduzi Sardor Mamadaliyev ishtirokida galakonsert tashkil etildi. Konsert dasturi minglab yurtdoshlarimizga madaniy hordiq, quvonch va ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi.

– “Muruntov” qo‘rg‘onida yashaymiz. Konsert dovrug‘ini eshitib, oilamiz bilan bu tadbirga keldik. Taniqli san’atkor tomonidan ijro etilgan qo‘shiqlar barchaga manzur bo‘ldi. Eng muhimi, xalqimiz xursand bo‘ldi. Bunday tadbirni tashkil etgan kombinat rahbariyatiga rahmat, – deydi “Qizilqumgeologiya” DUK hisobchisi Ulug‘bek Ergashev. – Shu hudud vakili sifatida bunday tadbirlarning ko‘proq bo‘lishini istaymiz. Chunki, mashaqqatli mehnatdan so‘ng mazmunli dam olishga, el suygan san’atkorlar ijrosida qo‘shiqlar tinglashga ne yetsin.

Konsert dasturi so‘ngida shaharning tungi osmonida porlagan mushakbozlik barchaga birdek shodlik, bayramona kayfiyat ulashdi.

**“NKMK” AJ Matbuot xizmati.**

■ Yangiliklar. Xabarlar.

# OAV VAKILLARI VA JURNALISTLAR

## kombinat korxonalari faoliyati bilan tanishdi

**29-may kuni ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun "NKMK" AJ Markaziy kon boshqarmasi tashkil topganligining 60 yilligiga bag'ishlab press-tur va matbuot anjumani o'tkazildi.**

Navoiy kon-metallurgiya kombinati nafaqat O'zbekiston sanoatida, balki jahonning oltin ishlab chiqaruvchi yetakchi kompaniyalari qatorida o'z o'rni va salohiyatiga ega yirik korxonadir.

Markaziy kon boshqarmasi esa ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha kombinatning yetakchi bo'linmasi hisoblanadi. Keyingi yillarda yirik investitsion loyihalarning amalga oshirilishi kon boshqarmasida ishlab chiqarish sur'atini oshirishga xizmat qilmoqda. Yangi zavod va konlarning ishga tushirilishi Navoiy kon-metallurgiya kombinati uchun qo'shimcha imkoniyat, istiqbollarni yaratdi.

Press-tur davomida OAV vakillari va jurnalistlar jahonga mashhur "Muruntov" oltin konida bo'lib, qazish jarayoni, konni o'zlashtirishning 5-navbati doirasida olib borilayotgan ishlar bilan yaqindan tanishdilar.

"Muruntov" koni geologlar tomonidan eng yirik oltin resurslariga ega kon sifatida e'tirof etilib, uning resurslari 4,5 ming tonnadan ortiq baholangan. Ayni vaqtda konning uzunligi 5,5 kilometr, kengligi 3,4 kilometr, o'rtacha chuqurligi 650 metrni tashkil etadi. Keyingi yillarda konni o'zlashtirishning 5-navbati bo'yicha amalga oshirilayotgan investitsion loyiha doirasida keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

2-gidrometallurgiya zavodida tarkibida qimmatbaho metall bo'lgan ma'danni maydalashdan boshlab, undan tayyor mahsulot ajratib olib, oliy sifatli quyma oltin hosil qilishgacha bo'lgan texnologik jarayonlar to'liq amalga oshiriladi. 1969-yil 21-iyulda 2-GMZda "Muruntov" konida qazib olingan ma'dandan 11 kilogramm 820 gramm og'irlikdagi birinchi oltin yombisi olindi. Bugungi kunda zavodda yiliga 50 million tonnadan ortiq ma'dan qayta ishlanmoqda. Zavod zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida to'liq raqamlashtirilgan bo'lib, korxonada ishlab chiqarishning raqamlashtirilgan boshqaruv markazi faoliyat ko'rsatmoqda.

Markaziy kon boshqarmasining Tashqi suv ta'minoti birlashgan energoxizmatida 1969-yil 27-may kuni "Amudaryo-Zarafshon" suv quvurining 1-yo'nalishi foydalanishga topshirilgan edi. Bugungi kunda mazkur jamoa Zarafshon va Uchquduq shaharlari aholisi hamda Markaziy va Shimoliy kon boshqarmalari sanoat maydonlaridagi ishlab chiqarish korxonalariga texnik va ichimlik suvi yetkazmoqda.



Ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun 7-gidrometallurgiya zavodi majlislar zalida matbuot anjumani tashkil etildi.

Matbuot anjumanida OAV vakillari va jurnalistlarni qiziqtirgan savollarga atroflicha javoblar berildi.

**"NKMK" AJ Matbuot xizmati.**

**"Navoiyuran" davlat korxonasida zamonaviy boshqaruv tamoyillarini tatbiq qilish ishlari jadal olib borilmoqda, xususan joriy yil mart-aprel oylarida korxonada 2 ta xalqaro standart – ISO 27001 "Axborot xavfsizligi menejmenti" va ISO 50001 "Energetika menejmenti" tizimlarning talablari joriy etilib, sertifikatlashtirish auditi muvaffaqiyatli o'tkazildi.**

# ESG REYTINGINI QO'LGA KIRITISH YO'LIDA YANA BIR QADAM



CERT International

CERTIFICATE

IAF  SNAS Reg. No. 494/R-152

CERT INTERNATIONAL s.r.o. certification body basing on the results of the audit conducted in accordance with the certification procedures confirms that the information security management system of:

«NAVOIURAN» SE

7, Inspectorlar street, Navoi city,
Navoi region, 210100, Republic of Uzbekistan

within the scope:

Mining and production of natural uranium

Statement of applicability (SoA), version from 30.10.2024

meets the requirements of the following standard:

ISO/IEC 27001:2022

Certificate №: ISMS-1425/A
Order №: 1532-1/01
Valid from: 08.05.2024
Valid till: 07.05.2027
(subject to annual surveillance audits)

Head of the Certification Body
08.05.2024



CERT International

CERTIFICATE

IAF  SNAS Reg. No. 494/R-125

CERT INTERNATIONAL s.r.o. certification body basing on the results of the audit conducted in accordance with certification procedures confirms that the energy management system of:

«NAVOIURAN» SE
with branches (see annex)

7, Navoi city, Inspectorlar street,
Navoi region, 210100, Republic of Uzbekistan

within the scope:

Mining and production of natural uranium

meets the requirements of the following standard:

ISO 50001:2018

Certificate №: EnMS-1383/A
Order №: 1532-1/01
Valid from: 29.03.2024
Valid till: 28.03.2027
(subject to annual surveillance audits)

Head of the Certification Body
29.03.2024

Shu munosabat bilan, yaqinda "Cert International" xalqaro sertifikatlash tashkiloti bosh auditori Riad Ibragimov "Navoiyuran" davlat korxonasi bosh direktori Djamal Fayzullayevga ISO 27001 va ISO 50001 sertifikatlarini rasmiy ravishda topshirdi hamda ESG tamoyillarini faol joriy etib kelayotgan korxona jamoasiga kelgusi rejalarini amalga oshirishida omad va muvaffaqiyatlar tiladi.

Avvalroq, 2023-yil may oyida korxonada 3 ta xalqaro ISO standart talablari joriy etilib, ISO 9001 "Sifat menejmenti", ISO 14001 "Ekologik menejmenti" va ISO 45001 "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligini ta'minlash menejmenti" sertifikatlari qo'lga kiritilgan edi.

Mazkur sertifikatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyuldagi "2022 — 2030-yillarda "Navoiyuran" davlat korxonasida uranni qazib olish, qayta ishlash hajmlarini oshirish hamda uni transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-319-sonli qarori bilan korxonani transformatsiya qilish, shu jumladan "Environment, Social & Governance" (ESG) tamoyillarini joriy etish topshirig'i ijrosi doirasida qo'lga kiritilmoqda.

Mazkur ISO 27001 va ISO 50001 sertifikatlarning qo'lga kiritilishi va jami qo'lga kiritilgan xalqaro ISO standartlari bo'yicha sertifikatlarning 5 taga yetkazilishi "Navoiyuran" davlat korxonasi tomonidan ESG tamoyillarini joriy etish va ESG reytingini qo'lga kiritish yo'lida olib borilayotgan faol harakatlarining mantiqiy davomi bo'lib xizmat qiladi.

**"Navoiyuran" DK axborot xizmati.**

**Navoiy kon-metallurgiya kombinatida ishchi-xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, ularning nazariy va amaliy bilimlari, mahoratlarini oshirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. O'quv markazida o'tkazilayotgan o'quv kurslari, seminar va ochiq darslar tinglovchilar bilimini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.**

# O'QUV MARKAZIDA OCHIQ DARS O'TKAZILDI

Yaqinda "NKMK" AJning Navoiy shahrida joylashgan O'quv markazida kombinat boshqarmasi, "Qizilqum" kon boshqarmasi, Navoiy mashinasozlik zavodi vakillari uchun "Avtogidroko'targich va teleminoralarda ishlashga ruxsat berish" mavzusida ochiq dars o'tkazildi.

– Ochiq darsda tinglovchilarga avtogidroko'targichlar tasnifi, tuzilishi va ularda xavfsiz ishlash qoidalari, ishlashda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noxush hodisalar hamda avariya holatida qanday harakatlanish kerakligi to'g'risida tushunchalar berildi. Nazariy va amaliy jarayonlar uyg'unligida o'tgan mashg'ulotda tinglovchilar mavzuga doir videolavha va slaydlar orqali batafsil tushunchaga ega bo'lishdi, - deydi O'quv markazi kadrlar tayyorlash bo'yicha muhandisi Lola Kenjayeva.

Interfaol usulda o'tkazilgan ochiq dars jarayoni savol-javoblarga boy bo'ldi. O'quv markazida o'tkazilayotgan o'quv kurslari, seminar va ochiq darslar tinglovchilar bilimini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

# ФЕСТИВАЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

**В мае текущего года в мемориальном комплексе «Парк Победы» г.Ташкента прошел фестиваль инновационных технологий в сфере обороны.**

В нем приняли участие около 20 крупных производственных предприятий, 50 организаций, более 30 физических лиц и изобретателей со своей продукцией в области современных технологий, металлургии, химической и текстильной промышленности, а также продукцией двойного назначения, необходимой для Вооруженных Сил.

В рамках фестиваля проведены соревнования по робототехнике, киберспорту, хакерскому делу, дрон-рейсингу, 3D-моделированию и программированию.

Представители АО «НГМК" – ведущие специалисты Управления информационно-коммуникационных технологий представили на обозрение инновационный проект под названием "Умная видеоаналитика". Основными целями реализации данного проекта являются автоматическое выявление фактов нарушения требований техники безопасности и промышленной безопасности в части применения средств индивидуальной защиты, контроль пересечения границ зон ограниченного доступа, сбор и хранение полученных данных о детектированных нарушениях требований ТБ.

# ПО МАНОВЕНИЮ ПАЛОЧКИ

**5 июня на сцене Дворца культуры «Фархад» прошел отчётный концерт оркестра узбекских народных инструментов «Нихол» под управлением Гайрата Мадуллаева.**

По традиции ежегодная оркестр радует слушателей целым рядом музыкальных страничек. Это народные инструментальные и вокальные произведения, а также современные произведения различных жанров.

Концерт прошел в теплой обстановке, полный зал зрителей насладился живой музыкой и послушал виртуозную игру на народных инструментах молодых и талантливых артистов.

За годы своего существования оркестр стал для многих его участников настоящей семьей. В этом году в коллективе 5 выпускников, с которыми грустно расставаться, однако ребят впереди ждет интересная жизнь, наполненная прекрасными моментами. Желаем ребятам уверенно шагать в будущее, найти свое призвание и, конечно же, приходить в гости в родной оркестр народных инструментов! А оркестру «Нихол» хочется пожелать плодотворной и яркой деятельности на долгие года!

**Ситора ЯТИМОВА.**

■ Актуально

# ПРОМБЕЗОПАСНОСТЬ – НА ОСОБОМ КОНТРОЛЕ

**В нашем Навоийском регионе, который является одним из самых крупных индустриальных кластеров Узбекистана, вопрос промышленной безопасности стоит на особом контроле, поскольку любая фатальная ошибка на химических или горно-металлургических производствах, которые особенно развиты в области, может стать катастрофической, и нести опасность и для работников производства, и для обычных граждан, а также для окружающей среды.**

А обеспечение промышленной безопасности не только снижает профессиональные риски для сотрудников, исключает вероятность нарушения производственных процессов, обеспечивает стабильную работу предприятий, но и обеспечивает чистоту экологии.

В связи с этим, к Навоийскому горно-металлургическому комбинату – основному производственному предприятию Навоийской области - в 1992 году была прикреплена Кызылкумская районная горнотехническая инспекция Госгортехнадзора Республики Узбекистан, в настоящее время - Кызылкумская горнотехническая инспекция (КГТИ), которая является структурным подразделением уполномоченного органа Инспекции по контролю горнодобывающей, геологической и промышленной безопасности Республики Узбекистан.

С 1996 года ею руководил Музафар Пардаевич Болтаев, в настоящее время и.о.начальника назначен Алишер Хасанович Абдусатторов. Старейшими работниками Кызылкумской горнотехнической инспекции также являются Жалол Нурмухамедович Ураков - заместитель начальника, Собир Махмудович Чиникулов, Туйчи Хазраткулович Намозов, Азамат Журакулович Абдушукуров и другие. Каждый из них выполняет свой спектр задач. Есть инспекторы по горным работам, по котлогазовому надзору и подъёмным сооружениям, по геологическим и буровым работам, по маркшейдерским работам, по надзору за обеспечением радиационной безопасности, по надзору химической, нефтехимической и металлургической отраслей, по горным работам. Каждый из них дислоцируется на своём подконтрольном объекте в подразделениях комбината, и по необходимости, в соответствии со своим направлением деятельности, выезжают по заявкам в другие подразделения. Важно отметить, что, благодаря грамотному подходу М.П.Болтаева к оперативному выполнению задач, все специалисты инспекции практически взаимозаменяемы, а значит, обладают широким диапазоном знаний.

Кызылкумская горнотехническая инспекция осуществляет свою деятельность в соответствии с законами Республики Узбекистан «О недрах», «О промышленной безопасности опасных производственных объектов», «Об охране труда», соответствующими указами и постановлениями Президента Республики Узбекистан, Постановлениями Кабинета Министров «Об утверждении положения о расследовании и учёте несчастных случаев на производстве и иных повреждений здоровья работников, связанных с исполнением ими трудовых обязанностей», «Об утверждении единого положения о процедурах выдачи отдельных документов разрешительного характера через специальную электронную систему», «Об утверждения положения о государственном комитете промышленной безопасности Республики Узбекистан».



На Кызылкумскую горнотехническую инспекцию возложен надзор в области промышленной и радиационной безопасности на опасных производственных объектах АО «Навоийский ГМК», ГП «Навоийуран», ГУ «Фонд НГМК», а также надзор в области промышленной и радиационной безопасности ГУП «Иссиқлик манбаи», Учкудукского филиала «Худудгаз», осуществление государственного надзора и контроля с целью обеспечения выполнения руководителям и рабочим персоналом требований законов и нормативно-технических документов в сферах промышленной безопасности на подконтрольных объектах.

Нередко работу данной инспекции сопоставляют с деятельностью служб по охране труда и техники безопасности. Поэтому необходимо отметить, что промышленная безопасность направлена на предупреждение безопасной работы всех технических устройств и оборудования опасного производственного объекта, на контроль за обращением с опасными веществами, использованием сложных технических устройств и оборудования, приборов, контрольных систем, за проведением экспертизы промышленной безопасности сооружений и оборудования, осуществлением своевременной диагностических и испытательных работ, освидетельствованием технических устройств, а охрана труда - на обеспечение безопасных условий работы на предприятиях и в организациях.

- Производственный контроль является составной частью системы управления промышленной безопасностью, - рассказал заместитель начальника горнотехнической инспекции по котлогазовому надзору и подъёмным сооружениям Жалол Ураков, - и представляет комплекс мероприятий, направленных на обеспечение безопасной эксплуатации опасных производственных объектов, на предупреждение аварий и инцидентов на этих объектах и обеспечение готовности к локализации аварий и инцидентов и ликвидации последствий. В настоящее время более 70 тысяч работников трудятся на поднадзорных 252 опасных производственных объектах, расположенных в пяти областях Республики Узбекистан (Навоийской, Самаркандской, Джизакской, Сурхандарьинской, Ташкентской) и Тахиаташском районе Республики Каракалпакстан. В целом, мы осуществляем государственный надзор за эксплуатацией более тысячи технических устройств: это горно-шахтное оборудования, карьерные большегрузные транспортные средства, автотранспортные средства, предназначенные для перевозки опасных грузов, автозаправочные станции, подъёмные сооружения, паровые и водогрейные котлы, компрессорные установки, сосуды, работающие под давлением и т.д., используемых на опасных производственных объектах, а также за промышленной безопасностью горнодобывающей, нефтегазовой, нефтехимической и металлургической отраслей. Коротко говоря, промышленная безопасность – реализация мер по осуществлению защиты жизни и здоровья сотрудников опасных производств и находящихся рядом людей от чрезвычайных ситуаций на опасных производственных объектах и их последствий. Она включает управление всеми операциями и событиями на предприятии с целью защиты её сотрудников и активов путём оценки и минимизации рисков, аварий и несчастных случаев, чтобы предприятие могло продолжать свою деятельность в обычном режиме без прерывания работы.

В целях изучения соблюдения требований законодательства и подзаконных актов в области промышленной и радиационной безопасности на подконтрольных опасных производственных объектах, специалистами Кызылкумской горнотехнической инспекции в течение 2023 года проведены 372 проверки, в ходе которых выявлены 3128 нарушений, выданы 372 письменных предписания и представления об устранении выявленных нарушений. Также к 126 работникам были применены административные взыскания, на 28 объектах были приостановлены работы из-за нарушения промышленной безопасности на подконтрольных предприятиях. В то же время изучены и согласованы 735 документов проектов, технических решений и других аналогичных документов, представленных на согласование.

Кроме того, специалисты инспекции участвовали в составе комиссии в проверке знаний, согласно законам и нормативными техническими документами в области промышленной безопасности, 18 998 руководителей, специалистов и обслуживающиего пресонала поднадзорных опасных производственных объектов. А также принимали участие в работе специальных комиссий по расследованию произошедших в течение прошлого года несчастных случаев в пределах своих полномочий.

Помимо этого, работниками Кызылкумской горнотехнической инспекции в 2023 году оказана практическая помощь в получении более 120 документов разрешительного характера и лицензий на монтаж, ремонт, эксплуатацию, пуско-наладочные работы технических устройств опасных производственных объектов и другую подобную деятельность.

Таким образом, основной целью специалистов Кызылкумской горнотехнической инспекции по проведению вышеуказанной контрольно-профилактической работы является предотвращение и минимизирование аварий, инцидентов и несчастных случаев на подконтрольных опасных производственных объектах, улучшение условий труда работников, а также предложения по использованию современного технологического оборудования, обеспечивая при этом верховенство Закона.

Исходя из вышесказанного, можно сделать вывод, что обеспечение безопасности в промышленности несёт ощутимую пользу: это увеличение производительности труда, снижение себестоимости продукции, снижение ущерба для машин и оборудования, предотвращение травм и профзаболеваний среди сотрудников предприятия, формирование безопасного рабочего пространства. И соблюдение правил промышленной безопасности – гарантия соблюдения законности.

**Насиба ШАМУРАТОВА.**

## Mehnat kishilari haqida hikoyalar

**Yaqinda Markaziy kon boshqarmasi tashkil topganlining 60 yilligi keng nishonlandi. Ulkan korxonaning rivoji, erishayotgan yutuqlarida minglab turli kasb egalarining munosib hissalari bor va bo‘lyapti ham. Quyida kon boshqarmasi bo‘linmalarida fidokorona mehnat qilayotgan jonkuyar insonlar haqidagi materiallarni e’tiboringizga havola qilamiz.**

# KASBIDA KAMOL TOPAYOTGANLAR

**Bakitjan UMAROV,**
**Zarafshon AKTM Telekommunikatsiya tizimlarini ishlatish va kuzatish bo‘limi boshlig‘i.**

“Ba’zan inson ortga boqib, bosib o‘tgan umr yo‘llarini sarhisob qilgisi keladi. Konimex tumanida tug‘ilib, oltintoparlar shahrida yashab, mamlakatimizning gigant korxonasi bo‘lgan “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida faoliyat yuritypman. Ish tajribamga ham 24 yil bo‘libdi. Shu yillar davomida ko‘plab shogirdlar tayyorladim. Jamoamiz zimmasiga Markaziy kon boshqarmasi bo‘linmalari telefon aloqasining bir maromda ishlashini nazorat qilish, texnik nosozliklarning oldini olish, avariyaviy holat vujudga kelganda uni qisqa fursatlarda bartaraf qilish vazifalari yuklatilgan. Shu boisdan hamisha zimmamda katta mas’uliyat borligini his etib ishlayman”, – deydi Bakitjan Umarov.

Bakitjan Beysenbayevich mehnat faoliyatini 2000-yilda Markaziy kon boshqarmasi aloqa sexi Qizilqum fosforit telefon aloqasi va radiolashtirish liniyasi elektrmontyorligidan boshlagan. Keyinchalik kasbiga fidoyiligini sezgan rahbariyat uni aloqa sexi aloqa katta ustasi, “Bessopan” aloqa uchastkasi boshlig‘i lavozimlariga tayinladi. O‘n yildan ortiq vaqt davomida jamoasi bilan birgalikda Qizilqum bag‘ridagi korxona, tashkilotlarga sifatli aloqa xizmati ko‘rsatishni ta’minlab kelayotgan qahramonimiz



3-darajali “Konchilik shuhrati” ko‘krak nishoni sohibidir.

“Inson qaysi kasb egasi bo‘lishidan qat’i nazar, halol, mehnatsevar bo‘lishi kerak, deb o‘ylayman. 3 nafar farzandimga ham doimo shunday deb uqtiraman. Korxonamizning kelajagi uchun bor kuch-g‘ayratim va tajribam bilan hissa qo‘shish oliy maqsadimdir”, – deydi B. Umarov.

**Bodom RIZAQULOVA,**
**9-avtokorxona moddiy-texnik ta’minot va xo‘jalik xizmati omborchisi.**



“Markaziy kon boshqarmasi tizimida ishlashning o‘zi katta baxt. Bu ishonchning qadriga yetishga harakat qilaman. Asosiy vazifam tovar-moddiy boyliklarni haydovchilarga tarqatish”, – deydi Bodom Rizaqulova.

Halol mehnati ortidan jamoada va hayotda o‘z o‘rnini topa olgan Bodom opa turmush o‘rtog‘i Ilhom Yodgorov bilan bir tashkilotda ishlaydi. Ularning 3 nafar farzandlari ham konchilik sohasida oliy ma’lumotli mutaxassislar.

“Inson shunday yashashi kerakki, odamlar ortingdan faqat yaxshilik bilan, samimiy xislatlaringni eslashsin. Odamlarga mehr ulashsam, tajribam bilan kimgadir yordamim tegsa, deyman. Qilayotgan ishimdan zavqlanaman. Ishxonamizdagi yigitlarning birovi meni ona deb hazillashsa, yana birovi opa deydi. Men ham yaqinimga aylangan jamoamni juda yaxshi ko‘raman”, – deydi Bodom opa samimiy kulib. Bunday tajribali mutaxassislar mas’uliyati va kasbiga sadoqati bilan yoshlarga yaxshi namuna, ustoz sanaladi.

**Djanat KADIRBERDIYEVA,**
**9-sonli avtokorxona eksplutatsiya bo‘limi dispetcheri.**

Ilk mehnat faoliyatini 1996-yilda “Agama-101” to‘qimachilik-trikotaj fabrikasida tikuvchilik vazifasida boshlagan Janat Bodiyevna Davlat mol-mulkini boshqarish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash Respublika biznes maktabini tugatganidan so‘ng Zarafshon qurilish boshqarmasiga qarashli 4-avtokorxonada yoqilg‘i-moylash materiallari hisobi bo‘yicha texnik vazifasida davom ettirdi. 2004 yilda esa topshirilgan vazifalarni mas’uliyat bilan bajarishga odatlangani bois rahbariyat uni 9-avtokorxonaga ishga taklif etdi. Ayni paytda millatlararo ahil jamoada, mehr-oqibatli odamlar orasida ishlamoqda.

“Hamkasblarimning har birini o‘z yaqinimdek hurmat qilaman, oilalarining quvonchu tashvishlarida birgamiz. Biz barchamiz shu korxona rivoji yo‘lida hamjihatlikda harakat qilamiz. Kombinatdek katta korxonada, mehr-oqibatli odamlar orasida ishlash men



uchun sharaf. Shu bois bo‘lsa kerak, doimo ishxonamga yuksak mas’uliyatni his etgan holda oshiqaman”, – deydi Djanat Kadirberdiyeva.

**Hayitboy SAMIYEV,**
**“Oltinni uyumda eritmaga o‘tkazish sexi” koni uyumda eritmaga o‘tkazish va tayyor mahsulot uchastkasi ustasi.**



Nurota tumani so‘lim tabiati, tanti va mehnatkash insonlari bilan o‘z o‘rniga ega. Ana shu go‘zal maskanda tug‘ilib voyaga yetgan, kasbini, baxtini Zarafshonda topgan Hayitboy Samiyev 40 yillik mehnat tajribasiga ega mutaxassis. 20 yildirki, “Oltinni uyumda eritmaga o‘tkazish sexi” konida mehnat qiladi. Texnologik quvurlar montajchisi vazifasida ish boshlagan qahramonimiz bugungi kunda uyumda eritmaga o‘tkazish va tayyor mahsulot uchastkasi ustasi.

“Insonning yoshi ulg‘aygan sari uning hayotdan chiqargan xulosalari ham ortib boraverarkan. 60 yoshning ostonasida hayotdan olgan sabog‘im shu bo‘ldi: har kim halol mehnat qilsa, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajarsa, jamoada obro‘-e’tibor qozonadi, ro‘zg‘origa baraka kiradi. Men o‘zimni baxtlilar safiga qo‘sha olaman. Sababi, sevgan kasbim, har qadamda qo‘llaguvchi ahil jamoam, mehribon oilam bor. Zarafshon men uchun qadrdon oshyondir. Farzandlarim shu yerda tug‘ilib voyaga yetishdi. Ularning biri mexanik, biri vrach, yana biri o‘qituvchi”, – deydi Hayitboy Azimovich taqdiridan minnatdor bo‘lib.

**Abdirashid RAYIMOV,**
**Avtomobil transporti boshqarmasi**
**“Muruntov” transport sexi haydovchi-ustoz.**

“Ish faoliyatimni 1992-yilda chilangarlikdan boshlaganman. Qirg‘iziston Respublikasi Batkent davlat universitetini tugatgandan so‘ng kon ishlari sexida ishchi, drobilka mashinisti, uchastka boshlig‘i, smena boshlig‘i vazifalarbda ishlab, tajriba orttirdim. Hozir haydovchilarga yuk ko‘tarish quvvati 27 tonnadan 240 tonnagacha bo‘lgan CAT, KOMATSU, BelAZ kabi og‘ir konchilik texnikalarida xavfsiz va to‘g‘ri ishlashni o‘rgatyapman”, – deydi haydovchi-ustoz Abdirashid Rayimov.

200 nafardan ortiq haydovchiga yo‘lda harakatlanish qoidalarini o‘rgatib kelayotgan Abdirashid Ne’matovich shogirdlariga nisbatan talabchan. Ularga kasbiy mahoratini oshirib borish lozimligini muntazam ta’kidlab keladi. Ayniqsa, kon pasporti bilan ishlab, yo‘l harakati xavfsizligiga rioya qilish keraklligini uqtiradi.

“Kombinat tizimidagi qariyb 30 yillik faoliyatim davomida ishlarim besamar ketmadi. Rahbariyat tomonidan ko‘p marta rag‘batlantirildim. Ahillik, totuvlik bor joyda doimo fayz-baraka hukm suradi. Yurtimiz rivoji yo‘lida ishlayotganimdan faxrlanaman. Barchamiz uchun yagona Vatan – O‘zbekistonda tinch-osuda va farvon hayot kechirayotganim uchun Yaratganga shukronalar aytaman”, – deydi Abdirashid Rayimov.

Markaziy kon boshqarmasi zamonaviy texnika va texnologiyalarga ega korxonadir. Kon boshqarmasining 32 millat-



ga mansub 21 ming kishilik ulkan jamoasi yer qa’ridan tabiiy boyliklarni qazib, tashib, qayta ishlab, tayyor mahsulot shakliga keltirib, mamlakatimiz iqtisodini yuksaltirishga katta hissa qo‘shmoqda.

**Nafosat ZIYOYEVA,**
**Aziza IRISOVAlar tayyorladi.**

## Sport xabarlari

# KUCHLILAR SARALANDI

**“NKMK” AJda bugun turli soha vakillari mehnat qilmoqda. Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash otryadlari kombinat faoliyatida o‘z o‘rniga ega.**

Joriy yilning 5-iyun kuni Navoiy shahridagi “So‘g‘diyona” o‘yingohida kombinat Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash otryadlari jamoalari o‘rtasida “NKMK” AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori kubogi” uchun sport musobaqalari o‘tkazildi.

Tadbir ochilishida NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi raisi I.Rahmatov musobaqa ishtirokchilariga samimiy tilaklar bildirib, bellashuvlarda omad tiladi.

Musobaqalarda kombinat Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash otryadlarining 8 ta jamoasi sportning 100 va 3 ming metrga yugurish, turnikka tortilish, amaliy o‘q otish turlari bo‘yicha o‘zaro bellashdi. Musobaqa qizg‘in sport kurashlari ostida o‘tdi. Ishtirokchilar bellashuvlarda epchillik va chaqqonlik borasidagi ko‘nikmalarini amalda namoyon etishib, musobaqa yakunida kuchlilar saralandi. Musobaqa g‘olibi sifatida “Qizilqum” kon boshqarmasi jamoasi “NKMK” AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori kubogi sohibiga aylandi. Shimoliy kon boshqarmasi jamoasi 2-o‘rinni, “Auminzo-Amantoy” koni jamoasi 3-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Musobaqaning turnikda tortilish, 100 metrga yugurish bellashuvlarida “Qizilqum” kon boshqarmasi IHQO nazoratchilari Mirsohib Mahmudov va Mustafo Hasanovlar faxrli birinchi o‘rinni egallashdi. “Auminzo-Amantoy” koni nazoratchisi Ismoil Ibragimov 3 ming metrlik masofani 12 daqiqa 31 soniyada yugurib o‘tib, eng yaxshi natijaga erishdi. Sportning o‘q otish turida Janubiy kon boshqarmasi nazoratchisi Akbar Xamrayevga teng keladigan topilmadi.

G‘oliblarni taqdirlashga bag‘ishlangan tadbirda “NKMK” AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov sport musobaqalari g‘oliblari va ishtirokchilarini tabrikladi. “Qizilqum” kon boshqarmasi jamoasiga kubok topshirilib, ikkinchi va uchinchi o‘ringa sazovor bo‘lgan jamoalar hamda turli nominatsiyalar g‘oliblari diplom va qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandilar.

– Mazkur sport musobaqasida barcha jamoalar faol ishtirok etib, har bir shartni bajarishda astoydil harakat qildi. Jamoamiz birdamligi, bellashuvlarga puxta hozirlik ko‘rganligi tufayli yaxshi natijani qo‘lga kiritdik. Eng muhimi, biz o‘zaro tajriba almashdik. Ushbu sport musobaqasi Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash otryadi xodimlari o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarni yanada jipslashtirishi, mustahkamlashi bilan ahamiyatli bo‘ldi. Tashabbuskorlar hamda uni har tomonlama yuqori saviyada o‘tkazishga hissa qo‘shgan barcha tashkilotchilarga o‘zimizning tashakkurimizni bildiramiz, – deydi “Qizilqum” kon boshqarmasi IHQO nazoratchisi Mirsohib Mahmudov.

Ushbu musobaqa Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash otryadlarida xizmat qilayotgan xodimlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, ular o‘rtasida sportni yanada ommalashtirish maqsadiga qaratilganligi bilan ahamiyatli bo‘ldi.

Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash otryadlari xodimlari zimmasiga olgan mas’uliyatli vazifani sidqidildan ado etish barobarida obyektlarni qo‘riqlash, ichki tartibni ta’minlash va boshqa muhim vazifalarni amalga oshirib kelishmoqda. Tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan 2 ming nafardan ziyod vatanparvar yigit-qizlarning fidoiyligi, o‘z burchiga sadoqati amaliy natijalarda ham namoyon bo‘lmoqda. Qizilqumning murakkab iqlim sharoitlarida sergak turib, xizmat olib borish oson emas. Idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash otryadi xodimlari zimmalaridagi mas’uliyatli vazifani uddalamoqdalar.




**Dildora KARIMOVA.**

# XALQARO TURNIR O‘TKAZILDI

**Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarliklarida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. 2022-yil 29-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sport kurashlarining olimpiya turlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi mazkur sport turlariga berilayotgan e’tibordan dalolatdir.**

Joriy yilning 3-6-iyun kunlari “So‘g‘diyona” sport saroyida Navoiy viloyati hokimi kubogi uchun 2007-2008 yillarda tug‘ilgan o‘smirlar va qizlar o‘rtasida sport kurashlari bo‘yicha Navoiy viloyatida yunon-rum kurashi maktabi asoschisi Raxmonov Ebodullo Olimovich xotirasiga bag‘ishlangan uchinchi an’anaviy xalqaro turnir bo‘lib o‘tdi. Ebodullo Raxmonov faoliyatini 1977-yilda Navoiy kon-metallurgiya kombinati kasaba uyushmasi huzuridagi Bolalar va o‘smirlar sport maktabida yunon-rum kurashi bo‘yicha murabbiy-ustoz sifatida boshlab, o‘n yil shu yerda ishlagan. U murabbiyligida 50 nafarga yaqin sport ustalari, 60 nafardan ortiq sport ustaligiga nomzod, 100 nafardan ziyod 1-toifali sportchilarni tayyorlagan. E.Raxmonov yuqori bilim va katta hayotiy tajribaga ega ustoz sifatida Navoiy viloyati sporti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga munosib hissasini qo‘shgan.

Ebodullo Olimovich yangilikka intiluvchanligi, insoniyligi, zimmasidagi vazifalarga mas’uliyat bilan yondashishi, tashkilotchilik, tashabbuskorlik fazilatlari bilan hamkasblariga hamisha namuna edi. U boshlagan ibratli ishlarning davomi sifatida viloyatimiz, qolaversa yurtimiz yoshlari yunon-rum kurashi bilan keng shug‘ullanib, nufuzli musobaqalarda yaxshi natijalarga erishmoqdalar.




Jannatmakon yurtimizda xalqaro sport musobaqalarining o‘tkazilishi Yangi O‘zbekistonning jahondagi mavqeini yanada oshiryapti. Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston va respublikamizning barcha viloyatlaridan sportchilar ishtirok etgan mazkur turnir tantanali tarzda ochildi va qizg‘in sport kurashlari ostida davom etdi. Xalqaro turnirning ochilish marosimida O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport sog‘lomlashtirish ishlari boshqarmasi boshlig‘ining o‘rinbosari N. Boxodirov “So‘g‘diyona” JTSK direktori Sohiba Qilichevaga “Sport fidoiysi” ko‘krak nishonini topshirdi.

Turnir sportchilarimizning mahoratlarini oshirish hamda 2025-yilda yoshlar o‘rtasida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadigan Osiyo o‘yinlari sport musobaqalarida munosib ishtirok etishlari uchun o‘ziga xos tayyorgarlik bosqichi bo‘lib xizmat qiladi.

Turnirda “So‘g‘diyona” JTSKning yunon-rum kurashi bo‘limi sportchilaridan 10 nafari ishtirok etishib, bitta oltin, ikkita kumush va uchta bronza medallarini qo‘lga kiritishdi.

**Dilshod NAZAROV,**
**“So‘g‘diyona” JTSK direktori o‘rinbosari.**

■ Ijod gulshani

# Mo'yqalam sehri



**Navoiy shahridagi "Farhod" madaniyat saroyi... Bu maskanga qadam qo'yishingiz bilan qalbingiz o'zgacha bir shukuh, zavq va hayajonga to'ladi. Mazkur dargohda milliy san'atimizni rivojlantirish yo'lida salmoqli ishlar qilinmoqda. Yoshlarni san'atga qiziqtirish, qobiliyatini ro'yobga chiqarishda mazkur madaniyat saroyining o'rni beqiyos. Unda yuzlab iqtidorli yoshlar kamolga yetmoqda. Buning uchun ularga barcha sharoitlar yaratib berilgan.**

"Farhod" madaniyat saroyi bugungi kunda 78 ta badiiy jamoa va guruhlardan iborat bo'lib, ulardan 25 tasi "Xalq" va "Namunali" maqomga ega. Ularda 1,5 ming nafardan ortiq turli yoshdagi ishtirokchilar shug'ullanishmoqda. San'at dargohida raqs, o'zbek va rus xalqlari cholg'ulari orkestrlari, maqom, tasviriy san'at va rasm chizish studiyasi, dekorativ va amaliy san'at kabi ijodiy yo'nalishlar va to'garaklar faoliyat olib borayapti.

"Qalb qushi" xalq tasviriy san'at studiyasi 1972 yilda taniqli grafikchi, O'zbekiston rassomlari uyushmasi Navoiy ijodiy seksiyasi sobiq raisi V.Chunixin tomonidan tashkil etilgan. So'ngra ko'p yillar davomida studiyaga V.Nifontov rahbarlik qildi. Uning rahbarligi davrida tasviriy san'at studiyasi tarbiyalanuvchilari qator yutuqlarga erishib, iste'dodli yoshlarning ijod namunalari Ukraina, London, Bangladesh, Norvegiyada o'tgan xalqaro ko'rgazmalar, "Yangi avlod" va "Kelajak ovozi" respublika ko'rik-tanlovlarida namoyish etilib, faxrli o'rinlarga munosib ko'rildi.

Ayni paytda to'garakka Nilufar Xo'jayeva rahbarlik qilayapti. U "Qizilqumning maftunkor jilosi", "Tasviriy san'at" ko'rik-tanlovlari g'olibi.

* * *

San'atning har bir turi o'z ko'rki, jozibasiga ega. Ular orasida rassomlikning o'rni bo'lakcha. Iste'dodli rassom yaratgan asarlar ilohiy bir kuchga ega bo'lib, insonni beixtiyor rangin tuyg'ular olamiga chorlaydi. Tovus misol tovlanadigan ranglar jilosi, san'at asarlari orasida nozik va mayin harakatlar bilan rasm chizayotgan Nilufarning mahoratini ko'rib yuqoridagi fikrlar naqadar to'g'ri ekanligiga amin bo'lish mumkin. O'z asarlari bilan san'at ixlosmandlari qalbiga go'zallik va nafosat olib kirayotgan qahramonimiz hozirda rassomlikning murakkab sir-asrorlarini shogirdlariga qunt bilan o'rgatmoqda. Madaniyat saroyiga borganimda uni ish ustida uchratdim. O'z mahorati, tajribasini shogirdlariga singdirishga harakat qilayotgan bu qiz talabchan va qattiqqo'l ustoz ekanligi bilinib turardi. Suhbatimiz ham rassomlik san'ati mavzusida boshlanib ketdi. Omad, iste'dod, Olloh bergan iqtidor, ijodiy muvaffaqiyat Nilufarni chetlab o'tmagan.

Iqtidorli rassom Tohir aka Xo'jayev va Muazzam opa xonadonida tug'ilgan Nilufar kichik yoshidan rasm chizish bilan shug'ullana boshladi. Undagi iqtidorni anglab yetgan otasi uni madaniyat uyiga yetaklab keldi.

Rassomlikning betakror jihatlarini, ranglarning sehri bilan go'zallik yaratish sir-asrorlarini egallashda otasining maslahatlariga quloq tutib, u kishidagi bag'rikenglik, sabr-bardosh kabi fazilatlarni o'ziga singdirishga harakat qildi. Rassom bo'lish orzusida bo'lgan Nilufar hayotga bolalik nigohi bilan o'zicha chizgilar berar, maqsadlari, qarashlarini tasvirlarda ifodalashga urinardi. Maktabni bitirgach, Navoiy davlat pedagogika institutining Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fakultetida tahsil oladi. Bu oliygoh uning hayotida juda katta o'rin tutadi. U yerda ko'plab san'at insonlari sabog'ini, maslahatlarini, o'gitlarini oldi. Ularga havas qilib, izlanishga, intilishga harakat qilardi. O'qish davomida mahoratini ham toblab bordi.

Taniqli va mashhur rassomlar Mikelandjelo, Leonardo da Vinchi, Rembrandt, Bahodir Jalolov, Akmal Nur va O'rol Tansiqboyevlarning mo'yqalamiga mansub kartinalarning maftuni bo'lgan Nilufar doimo izlanar va mashaqqatlardan ortga chekinmasdi. "To'maris", "Bibixonim", "Amir Temur merosi", "Mirzo Ulug'bek", "Anor", "Dutor sehri", "Zaynab", "Jaloliddin Manguberdi jasorati", "Chingizxon hayrati" kartinalarini, "Ona", "Qalb qushi" portretlari hamda naturmortlar turkumini yaratdi.

- Ustozlarimning fikrlarini tinglayman. Ularning mulohazalari asarlarimni to'laqonli yaratishimga yordam beradi. Darhaqiqat, rassom yaratgan har bir asarida uning borliqqa bo'lgan munosabati, o'y-fikrlari, dunyoqarashi aks etadi. U o'z ijodida qaysidir ma'noda o'zini va o'zligini, dunyoni qanday ko'rayotganini va qanday ko'rmoqchi ekanligini namoyon etadi. Tomoshabin esa ushbu kartinaga o'z dunyosidan kelib chiqib nigoh tashlaydi. Shuning uchun ham yaratilgan asarlar turlicha talqin qilinadi, har ko'rganda yangicha sayqallanaveradi. Asarlarimni kimdir olqishlasa, e'tirof etsa o'zimni yettinchi osmonda his qilaman. Men uchun eng katta rag'bat shu bo'lsa kerak. Ijodkor uchun e'tirof suv va havo kabi muhimdir. Chunki u shundan ilhom oladi. Agar odamlar sizning mehnatingizdan lazzatlanmasa, o'zi uchun nimadir kashf eta olmasa, bilingki, urinishlaringiz barchasi besamar, - deydi Nilufar.

Nilufar faoliyati davomida qator davlatlarda o'tkazilgan ko'rik-tanlovlarda iste'dod va mahorati ortidan g'oliblar safidan o'rin egalladi. Endilikda uning shogirdlari ham respublika va xalqaro darajada o'z ishlarini namoyish etmoqdalar. Yangi ijodkor rassomlar avlodini tarbiyalashga o'z hissasini qo'shayotgan Nilufar bugun badiiy ijod, tasviriy san'at rivojiga berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikdan mamnun. O'z bilganlarini 150 nafardan ziyod shogirdlariga o'rgatayotganligi bois shogirdlari ardog'ida. Shogirdlarining ijod olamlari keng, orzulari bir dunyo. Ular ustozlari Nilufar kabi tabiat go'zalliklari, ranglar hamda holatlar uyg'unligini o'ziga xos tarzda ifoda etishga oshiqishadi. Shogirdlaridan Amira Salimova, Nafisa Boharayimova, Amirxon Axmadov va Shodiyona Qo'ldoshevalar Chexiya davlatida bo'lib o'tgan xalqaro tanlovda faxrli o'rin sovrindorlari bo'lib, diplomlar bilan qaytishdi. Iqtidorli yoshlar Belorussiya Respublikasi va Misr davlatida bo'lib o'tadigan xalqaro ko'rik-tanlovlarga o'z ijod namunalarini yuborishgan.

Shogirdlaridan Amira Salimova "Xonsaroy" xalqaro tanlovida, Amriddin To'ymurodov "Kuz ranglari", Shodiyona Qo'ldosheva "Kamalak yulduzlari", "Yangi avlod" respublika ko'rik-tanlovlarida faxrli 1-o'rinni egallashdi. To'garak tarbiyalanuvchilari bo'lgan Muxlisa Ostonova, Bahora Rahmonovalar ayni paytda Navoiy davlat pedagogika institutining Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi fakultetida tahsil olmoqdalar.

- Bilasizmi, ustozimiz Nulufar opaning har bir xatti-harakati biz shogirdlarni yaxshi inson sifatida shakllanishimizga yordam berayapti, - deydi N.Xo'jayevaning shogirdi Nafisa. - Ustozim rassomlik olamining ochilmagan qirralarini anglashimga, borgan sari moy bo'yoqqa bo'lgan ixlosim ortib, chin yurakdan rasm chizishimga muhabbatimni uyg'otdi. Nilufar opa tasviriy san'atda barcha usullarni birma-bir, qunt bilan o'rgatadi. Ustoz vaqtlari tig'iz bo'lishiga qaramasdan o'quvchilarining har biriga alohida vaqt ajratib, bor bilimlarini beradi. Maqsadim Nilufar opa kabi mehribon, oqila va sabrli murabbiy bo'lish. U kishining "Senda rassomlik qobiliyati bor, o'z ustingda ishlab, tinimsiz mehnat qilsang, murodingga yetasan", degan so'zlari doimo menga kuch bag'ishlaydi, orzularimni rasmlarimda ifodalashga undaydi.



Ha, Nilufar o'z ishiga sidqidildan jon kuydiradigan, to'garak tarbiyalanuvchilarining har biriga mehr beradigan, ularni asrab- avaylaydigan va har birining yutug'idan g'ururlanadigan ustoz sifatida shogirdlarining mehrini qozonmoqda. Uning chizgan suratlarini kuzatar ekansiz, mo'yqalam sohibasining nozik didini his etasiz. Yosh iqtidor egasi chizgan rasmlarida insoniyat ruhiy olami, go'zal tabiat manzaralarini yorqin bo'yoqlarda eks ettirgan bo'lsa, landshaft usulidagi dizayn asosida yaratgan ishlari ham barchani hayratga soladi. Nilufar ijodining asosiy yo'nalishi buyuk mutafakkirlar, tarixda iz qoldirgan shaxslar siymosini va tarixiy voqealar ruhini jonlantirishdir. U tomonidan yaratilgan barcha tarixiy shaxslar qiyofasi obrazlarida ularning xarakteri ochib berilgan.

– Ijod maskanimiz uyimday bo'lib ketgan, bu dargohda 8 yil davomida to'garak rahbari bo'lib ishlab kelayapman. Hayotimning ko'p qismi shu dargohda kechyapti. Ijod zavqini, ustozlik sururini, mehnatning rohatini, barcha-barchasini shu yerda his etganman. Ba'zida birgina surat ustida haftalab, oylab mehnat qilgan vaqtlarim bo'lgan. Shunday damlarda o'zimni unutib qo'yardim. Holatni tasavvurlarimdagi kabi chiqargunimga qadar na yegan-ichganimda, na uyqumda halovat bo'lardi. Lekin rasmlarim tomoshabinlarga havola qilingach, ularning birinchi olqishidayoq bu charchoqlardan asar ham qolmaydi. Yanada qattiqroq ishlashga, bundan-da yaxshiroq chizib, tomoshabinlar e'tiboriga havola etish harakatiga tushaman, – deydi qaxramonimiz.

Ijodkor uchun ko'tarinki kayfiyatda ijod maskani tomon yo'l olish, shogirdlarini davrning munosib farzandlari qilib tarbiyalash haqiqiy baxt hisoblanadi. N.Xo'jayeva, shubhasiz, shunday insoniy baxtga musharraf zamondoshlarimizdan biridir. Vaqt o'taveradi, zamonlar o'zgaraveradi, Nilufar singari fidoyi, nozik didli musavvirlar bor ekan, bu san'at xalqning ruhiyatiga ezgulik va go'zallik olib kiraveradi.

**Dildora KARIMOVA,**
**jurnalist.**

■ "101" xabar qiladi

**Har yili avtomashinalarga o'rnatilgan gaz ballonlarining portlashi oqibatida o'nlab baxtsiz hodisalar ro'y berib, ko'plab insonlar hayoti va salomatligi xavf ostida qolmoqda. Achinarlisi, haydovchining loqaydligi yoki ehtiyotsizligi oqibatida begunoh insonlar jabr ko'rmoqda.**

# AVTOMOBILLAR XAVFSIZLIGI UCHUN

Afsuski, ko'pchilik haydovchilar gaz balloni qancha bosim ostida bo'lishi kerakligini bilmaydi yoki bilsada, amal qilishni xohlamaydi. Transportda xavfsizlik qoidalariga rioya etmaslik, gaz ballonlarini o'z vaqtida nazoratdan o'tkazmaslik ko'plab ayanchli oqibatlarga olib kelmoqda.

Xo'sh, avtomobil gaz balloni nima uchun portlaydi? Buning oldini olish mumkinmi? Ishlab chiqaruvchilar gaz ballonlarning foydalanish muddatini 15 yil deb belgilashgan. Ammo uni saqlash va ekspluatatsiya sharoitining og'irligiga qarab bu muddat kamayishi mumkin. Ya'ni, gaz ballondan belgilangan me'yor va talablar asosida foydalanilmasa, albatta, u muddatidan oldin yaroqsiz holatga kelib qoladi.

Davriylik sikli. Bu ko'rsatkich gaz ballonga bir yilda necha marta gaz quyish kerakligini anglatadi. Bu ko'rsatkich ishlab chiqaruvchilar tomonidan yiliga mingta deb belgilangan. Ammo, amaliyotda ayrim haydovchilar gaz ballonga yiliga ikki ming marotabadan ham ko'proq gaz quyishadi. Bu ham gaz ballonning "umri"ni qisqartiradi.

Bosim. Gaz ballondagi bosim 20 mega paskaldan oshib ketmasligi kerak. Afsuski, ko'pchilik haydovchilar uzoqroq yo'l bosish maqsadida ko'proq bosim ostida gaz quyishga harakat qilishadi. Buning oqibati esa ayanchli yakun topishi mumkin.

Texnik ko'rik. Gaz ballonlari bir yilda kamida bir marotaba yuqori bosim ostida sinovdan o'tkazilishi kerak. Bu gaz ballon devorlarining mustahkamligini, tashqi va ichki deformatsiyaga uchramaganligini aniqlash va yana bir yil foydalanish uchun ishonch hosil qilish imkonini beradi. Shuningdek, ballon gaz cho'kmalari va boshqa chiqindilardan tozalanib, yuviladi. Amaliyotda esa ko'pchilik haydovchilar gaz ballonini sinovdan o'tkazishdan qochishadi. Buning uchun noqonuniy yo'llardan ham foydalanishadi. Oqibatda u yillar davomida sinovdan o'tkazilmasdan qolib ketaveradi. Ballon mahkamlangan konstruksiyalardagi himoya rezinalari shikastlanadi, temir konstruksiyalar va tashqi muhit, deformatsiya, gaz cho'kmalari ta'sirida ichki yemirilish boshlanadi va oxir-oqibat u portlaydi.

Sifat. 2018 yil fevral oyidan buyon respublikamizda SPG-2 turidagi (kapron) gaz balloni foydalanishdan chiqarilgan. Bunga mazkur gaz ballonlarning mustahkamligi yetarli darajada emasligi va foydalanish muddatining kamligi sabab qilib ko'rsatilgan. Ammo, hozir ham kapron kompozit qoplamali gaz ballonlaridan foydalanish holatlari tez-tez uchrab turadi. Eng xatarlisi, ayrim kimsalar tomonidan ballon yuzasidagi kompozit qoplama olib tashlanib, xuddi po'lat ballondek ko'rsatish holatlari aniqlanmoqda. Bu esa juda xatarli.

To'g'ri o'rnatish. Gaz ballonlari faqat tegishli litsenziyaga ega mutaxassislar tomonidan o'rnatilishi lozim. Shuningdek, gaz uskunalarining standart xavfsizlik klapanlari bo'lishi kerak. Arzon va qo'lbola xavfsizlik klapanlari tezda ishdan chiqadi va zarur hollarda ishlamay qoladi. Oqibati esa hammaga ma'lum.

Hech bir avtomobil favqulodda vaziyatlardan to'liq muhofaza etilmagan. Ammo xavfsizlik talablariga rioya etish orqali bunday ko'ngilsizliklarning oldini olish mumkin. Shu sababli, transport vositalarini doimo texnik soz holatda boshqarish, harakat davomida hushyorlikni yo'qotmaslik hamda gaz ballonlaridan to'g'ri foydalanish va ularni o'z vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazish lozim.

**Ma'rufjon XAYITOV,**
**NKMK Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi guruh boshlig'i.**
**Jamol AXMEDOV, kichik inspektor.**

# BOLALAR G'AMXO'RLIK OG'USHIDA

**Yoz – bolalar uchun eng mazmunli, esda qolarli voqealarga boy fasldir. Ana shu faslda ular tabiatning go'zal, xushhavo joylaridagi sog'lomlashtirish maskanlarida hordiq chiqaradilar. Dam olish maskanlari jamoalari mas'uliyatli mavsumga puxta tayyorgarlik ko'radi. Oromgohlar ma'muriyati bolalarning yashash va dam olishlari uchun qulay sharoitlar yaratib berish bilan kifoyalanib qolmay, hordiq davrida ko'ngilsiz hodisalarning oldini olishga ham katta ahamiyat beradilar.**

Bu jihatdan Davlat yong'in nazorati xodimlari zimmasiga alohida mas'uliyat yuklangan. Janubiy kon boshqarmasi va Navoiy sanoat maydoni obyektlarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi xodimlari "Bolajon" va "So'g'diyona" bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida yozgi dam olish mavsumini namunali o'tkazish choralarini ko'rdilar. Oromgohlarning har biriga tilsiz yovdan asrash maqsadida avtoekipaj ajratildi hamda ikki nafar profilaktika va yong'in nazorati inspektorlari tomonidan tunu kun xizmat olib borilishi tashkillashtirildi.

Mavsum boshlanishi oldidan oromgohlar yong'in xavfsizligi xodimlari tomonidan tekshirilib, ularning mutasaddi rahbarlariga 63 ta banddan iborat davlat yong'in nazoratining yozma ko'rsatmalari taqdim etildi. Nazorat tartibidagi tekshiruvlar amalga oshirilib, barcha bandlar o'z vaqtida sifatli bajarilishiga erishildi. Shu bilan birga mavsum davomida yong'in xavfsizligini ta'minlashga oid qoida va talablarga rioya qilish, yong'in va favqulodda vaziyatlarda o'zini qanday tutish haqida xabardor qilish maqsadida uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazildi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati tizimidagi barcha bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida maktab o'quvchilarining yozgi dam olish mavsumi boshlandi. "So'g'diyona" bolalar sog'lomlashtirish oromgohida 450 nafar, "Bolajon" sog'lomlashtirish oromgohida esa 430 nafar o'g'il-qizlar miriqib dam olmoqdalar. Har ikkala oromgohda kelajagimiz egalarining mavsumni har tomonlama mazmunli o'tkazishlari uchun barcha zarur sharoitlar muhayyo etilgan. Bo'limimiz xodimlari dam olish bilan bog'liq ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish uchun tunu kun hushyor turib, o'z vazifalarini sidqidildan bajarmoqdalar.

**Akmal HAKIMOV,**
**Xurshid ERGASHEV,**
**"Janubiy" KB va NSM OYOXTTEB inspektorlari.**

■ Xalqaro arxivlar kuniga

# JAVONLARDAGI TARIX

**Xalqaro arxivlar kuni munosabati bilan "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatining Markaziy arxivi boshlig'i Irina Sergeyevna Malyakova bilan suhbatlashdik. U arxivlar faoliyati, kiritilayotgan yangiliklar, sohada raqamlashtirishning amalga oshirilayotgani haqida quyidagilarni gapirib berdi.**

– Suhbatimizni kombinat arxivi tarixidan boshlasak, 1977 yilda Navoiy kon-metalurgiya kombinatida ilmiy-texnik va umumiy hujjatlarning fondlar bo'limi tashkil etilgan. Oradan yigirma to'rt yil o'tgach, kombinatning tashkiliy tuzilmasi tarkibiga Markaziy arxiv mustaqil bo'linma sifatida kiritildi. Bugungi kunda unda qariyb 90 mingga yaqin hujjatlar saqlanmoqda.

Ishimiz katta ahamiyata ega deb o'ylayman. Kombinatimiz va uning xodimlari faoliyati bilan bog'liq barcha ma'lumotlar arxivda jamlanadi, saqlanadi va kezi kelganda ulardan foydalaniladi. Muhimi, bu ma'lumotlar xodimlarning ijtimoiy himoyalanishining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Xodim pensiya yoshiga yetib, hujjatlarni rasmiylashtirishi lozim bo'lganda ish staji yillari va maoshi miqdorini tasdiqlovchi ma'lumotlar, yo'qolgan hujjatlarni tiklash, Davlat mukofotlarini olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni tayyorlash shular jumlasidandir. Ayni vaqtda "NKMK" AJ Markaziy arxivida G.Isayeva, N.Kozina, Yu.Platonova, A.Jo'rayeva, S.Adizova va A.Salimbetovalar faoliyat yuritmoqdalar.

Bugungi kunda arxiv ishi sohasida taraqqiyotga erishilgan. Agar yaqingacha arxiv xodimlari qog'oz kartotekalardan foydalanishgan bo'lsa, hozir arxiv hujjatlari to'plangan qator fayllar nafaqat elektron formatlarga, balki ingliz tiliga ham o'girilmoqda. Sohada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilmoqda, arxivlarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanib, infratuzilmasi modernizatsiyalanmoqda, arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash va ulardan foydalanishning zamonaviy usullari joriy etilmoqda. Bu esa vaqtni tejab, ishdagi tezkorlikni oshirishga yordam beradi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish arxiv faoliyati samaradorligini yanada oshirmoqda.

Kombinatning barcha bo'linmalarida raqamlashtirilgan hujjatlarning "Elektron arxiv" informatsion tizimi kiritilgan bo'lib, u amalda qo'llanilmoqda. Tizimda arxiv xodimlari tomonidan doimiy ish olib boriladi. Arxivlarning asosiy vazifasi - o'z vaqtida va sifatli arxiv xizmati ko'rsatishdan iborat.

Arxiv xodimi bajarayotgan ish jamiyat uchun juda muhimdir. Xodimlarimiz arxiv fondlarini yangi hujjatlar bilan to'ldirish borasida murakkab va diqqat talab qiladigan ishni amalga oshiradilar. Bunda hujjatli manbalarning butunligini saqlashga alohida e'tibor beriladi. Xodimlar tomonidan tayyorlanadigan va taqdim etiladigan ma'lumotlar esa aniqlikni talab qiladi. Demak, xodimlar yuqori bilim darajasiga ega bo'lishlari darkor. Arxiv xodimlari o'z bilim va malakalarini O'zbekiston arxivi agentligi qoshidagi Ilmiy-uslubiy markazda oshirib, sertifikatlarga yoki NKMK tizimida saqlanayotgan hujjatlar qimmatligini ekpertiza qilish huquqini beradigan guvohnomaga ega bo'lishadi. Ayni vaqtda bunday amaliyotni o'tkazish huquqini beradigan guvohnoma menda va arxiv xodimi N.Kozinada bor.

Arxivlar – tarixni o'zida mujassam etgan, hujjatli asosga tayangan yirik axborot manbaidir. Shu sababdan arxivlar – tarix ko'zgusi deya e'tirof etiladi. Arxiv hujjatlariga insonlar nafaqat bugun yoki ertaga, balki doimiy murojaat qiladilar. Shunday ekan, arxiv hujjatlarini asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga bus-butun yetkazishning ahamiyati kattadir.

**A.AXMEDOVA.**

KONCHILAR HAYOTI
MUASSIS:
"NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI" AJ

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 4-fevralda 1521-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Muharrir: **Nizomiddin SADRIDDINOV**

ISSN 2010-5266

**Tahririyat manzili:**
210100.
Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi, 27-uy,
"NKMK" AJ boshqarmasi
**Telefonlar:**
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ, "Navoiyuran" DK, "NKMK jamg'armasi" DM bo'linmalariga tarqatiladi.
Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta "Konchilar hayoti" gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi.
"Noshir Lux" MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi.
Nashr sifati bo'yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin.
**Bosmaxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Navbatchi: **Sitora ASANOVA**
Texnik muharrir: **Zafarjon OLIMOV**

Qog'oz bichimi A2. 12100 nusxada chop etildi.
Buyurtma № 312.
2024-yil 13-iyun 17:00 da chop etishga topshirildi.